

“O‘zavtosanoat” AJ Odob-axloq qoidalari

1. Umumiy qoidalar

“O‘zavtosanoat” AJ xodimlarining odob-axloq qoidalari (keyingi o‘rinlarda — Odob-axloq qoidalari) “O‘zavtosanoat” AJ xodimlarining kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubining namunaviy qoidalarini belgilaydi.

Odob-axloq qoidalari xodimlarning ish faoliyatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, Kompaniyaga xalqning ishonchini oshirish hamda Kompaniya xodimlarining axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

Kompaniya xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishi shart:

- qonuniylik;
- xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to‘liq bajarish, ijro intizomiga qat’iy rioya etish;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- Kompaniya manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik;
- korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo‘lish va qarshi kurashish;
- xizmat sirini qat’iy saqlash;
- berilgan vakolatlarni suiiste’mol qilmaslik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

Kompaniya xodimlari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariga amal qilishi lozim:

- Kompaniya obro‘sigga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish;
- mas’uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;
- murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko‘maklashish;
- xushmuomalalik, e’tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda va biznes hamkorlarda Kompaniyaga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg‘otish;
- fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo‘lish;

– Kompaniyada axloqning umume'tirof etilgan qoidalariga amal qilish.

Kompaniya xodimlari o'z funksional vazifalarini amalga oshirayotganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Odob-axloq va Komplayens qoidalariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

Kompaniya xodimlari Odob-axloq va Komplayens qoidalariga rioya qilish majburiyatiga, fuqarolar hamda biznes hamkorlar esa Kompaniya xodimlaridan mazkur qoidalarga mos bo'lgan kasbiy madaniyatni talab qilish huquqiga ega.

Kompaniya xodimlarining Odob-axloq va Komplayens qoidalariga rioya etishi ularning faoliyati hamda xizmatdagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Xodimlarning ish joyidagi faoliyati va Obod-axloq qoidalarini baholashning asosiy me'yorlaridan biri ularning Axloq kodeksiga rioya qilishlaridir. Kompaniya xodimlarining Obod-axloq va Komplayens qoidalari va kodekslariga rioya qilishlari kelgusida ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda hisobga olinadi.

2. Kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalari

Kompaniya xodimlari:

- › fuqarolarning jinsi, irqi, millati, fuqaroligi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi kamsitilishiga olib keluvchi harakatlar (harakatsizlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- › halol, adolatli va kamtar bo'lishi, fuqarolar hamda biznes hamkorlar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi;
- › Kompaniya manfaatlariga zarar yetkazuvchi, faoliyati samaradorligini pasaytiradigan harakatlar (harakatsizlik)dan tiyilishi;
- › o'zining xatti-harakati va axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramaslik choralarini ko'rishi;
- › tanqid uchun ta'qibga yo'l qo'ymasligi;
- › asosli va konstruktiv tanqiddan o'z faoliyatidagi kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida foydalanishi;
- › Kompaniya xodimlari va boshqa shaxslarga o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda shaxsiy masalalar yuzasidan ta'sir o'tkazmasligi;
- › o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olmasligi;

- › Kompaniya mulkining but saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan Kompaniya mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;
- › xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishi, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanishi;
- › aholining Kompaniya iste'molchisi sifatidagi talablariga muvofiq doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralari ko'rishi;
- › Kompaniya ichki hujjatlari, qonun bilan intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik va boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi;
- › kasb etikasi va ishchanlik uslubiga rioya etishi;
- › siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlarini yo'lida xizmat mavqeyi va imkoniyatlaridan foydalanmasligi kerak.

Kompaniya xodimlari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlardan ular mehnat vazifasini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishga da'vat etishi yoki majburlashiga yo'l qo'yilmaydi.

3. Xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari

Kompaniya xodimlari xizmat faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so'zsiz rioya etish;
- Kompaniya sha'nini e'zozlash;
- o'z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik;
- o'z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik;
- xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni doimiy asosda oshirish;
- Kompaniya boshqaruvi va ijroiya organi hamda mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi muvofiqlik bilan kurashish;
- har qanday shaxsga yoki tashkilotga pora bermaslik yoki pora berish bo'yicha topshiriq bermaslik, pora berishni taklif qilmaslik yoki va'da bermaslik;
- har qanday shaxs yoki tashkilotdan pora talab qilmaslik, so'ramaslik, olmaslik yoki qabul qilmaslik;
- korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat talablarini tushunish va ularga rioya qilish;
- har qanday shakldagi porani yoki pora sifatida qaralishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa qimmatbaho narsalar yoki boyliklarni bermaslik yoki olmaslik;

- xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday turdagi sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;
- Kompaniya xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o'zining rahbariga zudlik bilan ma'lum qilish;
 - o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ularning ta'siridan saqlanish, fuqarolar hamda yuridik shaxslar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;
- o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan saqlanish;
 - davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan va xizmatga oid boshqa ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik;
 - axborotlarni tarqatish qoidalariga rioya qilish, Internet jahon axborot tarmog'i va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlashning belgilangan tartibiga amal qilish;
 - biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta'minlash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralari ko'rish;
- ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, Kompaniyaga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan materiallarni joylashtirmaslik;
- yuridik shaxslar, fuqarolar va hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiruvchi ma'lumotlar, tuhmat, ig'vo va uydirmalarni tarqatmaslik;
- mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so'zlashish va kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya etish;
- o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish;
 - jamoada sog'lom ma'naviy muhitni saqlash choralari ko'rish;
 - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;
 - mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko'maklashish;
 - mehnat jamoasida hamkasblarining sha'ni va qadr-qimmatini obro'sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

Rahbarlar quyidagilarga majbur:

- qo'l ostidagi Kompaniya xodimlariga professionalizm, halollik, xolislik va adolatlilikda o'rnak bo'lish;

- jamoada sogʻlom maʼnaviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;
- Kompaniya xodimlarini qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishni talab qilmaslik;
- kadrlarni mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari boʻyicha tanlash, tayinlash yoki tavsiya etishga yoʻl qoʻymaslik;
- jamoada guruhbozlik va favoritizm (ayrim xodimlarni yaqin olish va qoʻllab-quvvatlash) koʻrinishlariga yoʻl qoʻymaslik, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning oldini olish;
- Kompaniya xodimlarining faoliyatiga baho berishda qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilish;
- Kompaniya xodimlari tomonidan korrupsiya va boshqa suiisteʼmolchiliklar sodir etilishining oldini olish choralarini koʻrish;
- har qanday shaxsga yoki tashkilotga pora bermaslik yoki pora berish boʻyicha topshiriq bermaslik, pora berishni taklif qilmaslik yoki vaʼda bermaslik;
- har qanday shaxs yoki tashkilotdan pora talab qilmaslik, soʻramaslik, olmaslik yoki qabul qilmaslik;
- boʻysunuvidagi Kompaniya xodimlarini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish choralarini koʻrish;
- vakolati doirasida shartnomalar tuzish, tanlovlar oʻtkazish yoki rozilik berish masalalariga xolis, adolatli va qonuniy yondashish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat talablarini tushunish va ularga rioya qilish;
- har qanday shakldagi porani yoki pora sifatida qaralishi mumkin boʻlgan har qanday boshqa qimmatbaho narsalar yoki boyliklarni bermaslik yoki olmaslik.

Rahbarlar qoʻl ostidagi Kompaniya xodimlariga qoʻpol muomalada boʻlishi, haqorat qilishi, shaxsiyatiga tegishi, ularga asossiz tanbeh berishi yoki ayblashi hamda kamsitishi mumkin emas.

4. Xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari

Kompaniya xodimlari ishdan boʻsh vaqtlarida umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va ularga zid boʻlgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan oʻzlarini tiyishlari shart.

Kompaniya xodimlari ishdan tashqari vaqtda quyidagilarga yondashisha maqsadga muvofiq:

- milliy urf-odat, qadriyat va anʼanalarga hurmat bilan munosabatda boʻlish;
- dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yoʻl qoʻymaslik;
- rasmiy eʼlon qilingan maʼlumotlardan tashqari ish faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilmaslik;

- jamoat joylarida (kafe, restoran va boshqa ko'ngilochar maskanlarda) o'zini tutish qoidalariga rioya etish, atrofdagilarning e'tiborini tortuvchi ortiqcha va salbiy harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

- jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etmaslik, mazkur noqonuniy harakatlarga boshqalarni jalb etmaslik yoki da'vat qilmaslik;

- xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslar – biznes hamkor, kontragent, idora va tashkilotlar rahbar va xodimlaridan, boshqa mansabdor shaxslaridan sovg'alarni qabul qilish Kompaniyaning sovg'alar, mehmondo'stlik, ko'ngilxushlik va sayohat qilish bo'yicha protsedurasida belgilangan tartibda amalga oshirish;

- o'z nomidan siyosiy tadbirlarda qatnashadigan xodimlar Kompaniya vakili sifatida buni amalga oshirishga yoki bunday taassurot qoldirishga haqli emas;

- xizmat avtotransport vositalaridan xizmat faoliyatidan tashqari holatlarda shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanmaslik;

- ish faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ishga aloqador bo'lmagan boshqa shaxslar ishtirokida muhokama qilmaslik;

- shaxsiy transport vositalaridan foydalanishda belgilangan tartibga amal qilish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish;

- tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanish haqida manfaatlar to'qnashuvi holati yuzaga kelishi ehtimoli vujudga kelganda Kompaniyani manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosatida belgilangan tartibda xabardor qilish;

- Kompaniyaga, ilgari o'zi faoliyat yuritgan davlat organlari va tashkilotlariga dog' tushiruvchi xatti-harakatlardan tiyilish;

- tashqi ko'rinishini belgilangan me'yorlar doirasida saqlash, kamtarona kiyinish, atrofdagilarning e'tiborini o'ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmaslik.

5. Jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalar

Kompaniya xodimlari ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilishi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko'maklashishi kerak.

Davlat siyosati yoki Kompaniya faoliyati to'g'risidagi ommaviy bayonotlar Kompaniya rahbari yoki mazkur yo'nalish bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda ommaviy bayonot berilishi mumkin emas:

- ommaviy bayonot matni va mazmuni Kompaniya faoliyatiga aloqador bo'lmasa;

- ommaviy bayonotda keltiriladigan axborotlar, tijorat siri, konfidensial yoki davlat sirlari bilan bog'liq bo'lsa;

- ommaviy bayonot boshqa tashkilotlar, davlat organlari va tashkilotlari nufuzini pasaytirish yoki ularning mansabdor shaxslarini kamsitishga yo'naltirilgan bo'lsa.

Agar ommaviy bayonotda fuqarolarning sha'ni hamda qadr-qimmatini kamsitadigan iboralar bo'lsa, Kompaniya xodimi o'z fikrlarining yanglishligi yoki noto'g'riligini tan olishi hamda sha'ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro'siga daxl qilingan fuqarodan, agar qonun hujjatlarida boshqa oqibatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, kechirim so'rashi shart.

6. Xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari

Kompaniya xodimlarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubi fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga hurmatini oshirishga xizmat qilishi kerak.

Kompaniya xodimi tashqi ko'rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, xizmat majburiyatlarini bajarishi vaqtida fuqarolarning Kompaniyaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi va rasmiylik, xolislik, kamtarlik va intizomni namoyon etishi lozim.

Kompaniya xodimlarining ish joyida tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubiga oid qo'shimcha talablar ichki mehnat tartibida belgilanishi mumkin.

7. Manfaatlar to'qnashuvi

Xodimning manfaatdorligi qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilishi va shu bilan Kompaniyaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan taqdirda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi.

Kompaniya xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

Agar yaqin qarindoshlar bir-biriga bo'ysunib ishlaydigan bo'lsa, ularni ishga yollash yoki joylashtirish mumkin emas.

O'rindoshlik asosida ishlash Kompaniyadagi ishga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi yoki unga zid bo'lmasligi lozim bo'lib, uni faqat Kompaniyadagi ishdan bo'sh vaqtda amalga oshirish mumkin. Bunda, raqobatchi tashkilotda bir vaqtning o'zida ishlash qat'iyon man etiladi.

Agar xodim yoki uning yaqin qarindoshi Kompaniyaning biznes hamkori bo'lgan kompaniyadan moliyaviy manfaatdor bo'lsa, xodim bu haqda bevosita rahbariga va/ yoki Komplayens departamentiga xabar berishi lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o'zining rahbarini darhol xabardor qilishi shart.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishga majbur

8. Inson huquqlariga rioya etish

Kompaniyada barcha xodimlar inson huquqlarini himoya qilishga oid O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va milliy qonunchilik talablariga rioya etishi shart.

Kompaniyada rahbariyat va xodimlar xizmat jarayonida bir-birlariga ishonch va hurmat, bag'rikenglik, adolat va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan munosabatda bo'lishlari shart.

Kompaniyada xodimlarga nisbatan kamsitishlarga yo'l qo'yilmaydi. Hech kimning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi va boshqa holatlarga ko'ra o'z huquqlarining buzilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Kompaniyaning har bir xodimi har qanday kamsitish belgilaridan xoli madaniyatni shakllantirishga o'z hissasini qo'shishga harakat qilishi lozim.

Kompaniyaning har bir xodimi ta'qibning hech qanday ko'rinishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Kompaniya va uning tizim korxonalarida har qanday shakldagi majburiy, ixtiyoriy bo'lmagan va bolalar mehnatidan foydalanish qat'iyan man etiladi va taqiqlanadi.

Kompaniyada mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi muhim rolni o'ynaydi, uning yetarli darajada ta'minlash ustuvor yo'nalish hisoblanadi, rahbariyat hamda xodimlar tomonidan ta'minlanishi va bajarilishi shart.

Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasidan manfaatdor va barcha xodimlar uchun sog'lom va xavfsiz ish muhiti tamoyiliga amal qiladi.

Kompaniyada ishchilarga mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, jumladan, ular duch keladigan xavflar, tegishli nazorat choralari, binolar va ish joylaridan xavfsiz foydalanish chizmalari, jihozlar va asbob-uskunalarni to'g'ri qo'llashga oid tegishli ma'lumotlar berilishi, shuningdek, ushbu sohada ishchilar uchun muntazam ravishda ta'lim olib borilishi lozim.

Har bir xodim har doim o'zini ishiga tegishli barcha xavfsizlik texnikasiga rioya qilishi kerak.

Xavfli ish sharoitlarini sezgan taqdirda ish darhol to'xtatilib, bu haqda bevosita rahbarga ma'lum qilinishi kerak.

9. Korrupsiya va poraxo‘rlik

Har bir xodim Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi va poraxo‘rlikka qarshi siyosat va tartib-taomillariga qat’iy rioya qilishi shart.

Kompaniya ish yuritadigan barcha hududlarda, mahalliy urf-odatlar, qabul qilingan amaliyot yoki mentalitetdan qat’i nazar, faoliyatning barcha sohalarida Kompaniya xodimlariga va Kompaniya nomidan harakat qiladiganlarga pora berish taqiqlanadi.

Pora naqd pul, qimmatbaho sovg‘alar, siyosiy badallar, xayriya yordamlari, ishga joylash takliflari kabi turli xil foyda shaklida bo‘lishi mumkin. Porani aniqlashning minimal chegarasi mavjud emas.

Pora sifatida rasmiy protseduralarni soddalashtirish uchun to‘lovlar nazarda tutilishi mumkin – bu odatiy vazifalar doirasiga kiruvchi odatdagi protsedurani tezlashtirish yoki bajarilishini kafolatlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, norasmiy ravishda so‘raladigan to‘lov shakli (masalan, avtomobilni berishni tezlashtirish va h.k.).

Kompaniya xodimlariga har qanday shaxs yoki tashkilotdan pora talab qilish, so‘rash, olish yoki qabul qilish, har qanday shaxsga yoki tashkilotga pora berish yoki pora berish bo‘yicha topshiriq berish, pora berishni taklif qilish yoki va’da berish kabi xatti-harakatlarga urinishlari, bunga teng barobar amalga oshirish taqiqlanadi.

Kompaniya xodimlariga, har qanday shakldagi porani yoki pora sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa qimmatbaho narsalar yoki boyliklarni berish yoki olish man etiladi.

Mazkur bandning birinchi qismida ko‘rsatilgan harakatlar Kompaniya xodimlarining oila a‘zolari yoki do‘stlari tomonidan ham Kompaniya nomidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab har qanday qimmatbaho narsalarni yoki imtiyozlarni olish mazkur harakatlar Kompaniya xodimi tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

10. Xayriya ehsonlari va tijorat homiyliklari

Kompaniya sport, madaniyat va san’at, ilm-fan va ta’lim sohasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda boshqa xayriya dasturlarida ishtirok etadi.

Kompaniyada siyosiy partiyalarni va siyosiy lavozimga nomzodlarni qo‘llab-quvvatlanmaydi. Siyosiy partiyalar yoki siyosiy lavozimga nomzodlarni targ‘ib qilishda Kompaniyaning nomidan ham, resurslari va mablag‘laridan ham, nazorati ostidagi har qanday korxonasidan ham foydalanish mumkin emas.

Kompaniya nomidan siyosiy badallarni amalga oshirish yoki bunday xarajatlarni amalga oshirish, yoxud biron-bir xodimga bunday badallar yoki xarajatlarni qoplash man etiladi.

O‘z nomidan siyosiy tadbirlarda qatnashadigan xodimlar Kompaniya vakili sifatida buni amalga oshirishga yoki bunday taassurot qoldirishga haqli emas.

11. Korporativ moliyaviy hisobot

Kompaniya buxgalteriya hisobini yuritish, aniq va to'liq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish standartlariga qat'iy rioya qiladi.

Hisobotning qaydlari va shakllari aniq hamda to'liq olib borilishi kerak. Ular moliyaviy operatsiyalarning asl mohiyatini aks ettirishi lozim.

Hisobot va qaydlarni insofsizlik bilan yoki ma'lumotlarni buzib olib borish yoki birovni chalg'itishga urinilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kompaniya xodimlari buxgalteriya qaydlarini soxtalashtir va o'zini harakatlarini asl mohiyatini yashirishga yoki buzishga urinmasligi kerak.

Mazkur harakatlar Kompaniyaga zarar yetkazmaydi yoki vaqtni tejashga yordam beradi deb hisoblansa ham Kompaniyadagi moliyaviy protseduralarini chetlab o'tish qat'iy man etiladi.

Ichki va tashqi auditorlar bilan hamkorlik qilish va ulardan Kompaniya to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirmaslik kerak.

12. Biznes hamkorlar va raqobatchilar

Kompaniya o'z faoliyatini biznes hamkorlar bilan adolatli biznes tamoyili asosida olib boradi, shuningdek, erkin va ochiq raqobat tamoyilini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Kompaniya yetkazib beruvchilarni obyektiv mezonlarga qarab, puxta tanlaydi va manfaatlar to'qnashuvining oldini oladi.

Yetkazib beruvchilar amaldagi xaridlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tanlanadi.

Kompaniyaning qadriyatlari va biznes tamoyillarini baham ko'ra oladigan biznes hamkorlarni puxta tanlash lozim.

Yetkazib beruvchini tanlash Kompaniyada amaldagi xarid qilish tartib-taomillariga belgilangan tartibda xolis va shaffof bo'lishi kerak.

Mahsulotlar va xizmatlar haqida ma'lumot berishda halol harakat qilish kerak.

Raqobatchilarning tovarlari va xizmatlari bilan taqqoslash mutanosib, ishonchli va tekshiriladigan tarzda amalga oshirilishi kerak.

Xodimlar hozirgi yoki kelajakdagi yetkazib beruvchidan shaxsiy manfaatga ega bo'lish maqsadida Kompaniyadagi rasmiy mavqesini suiiste'mol qilmasligi kerak.

13. Eksport nazorati va iqtisodiy sanksiyalar

Kompaniya o'z faoliyatini xalqaro savdo qoidalariga muvofiq olib borishi shart.

Kompaniya xodimlari Kompaniya tomonidan tovarlar, dasturiy ta'minot, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar va xizmatlarni davlat chegarasini kesib o'tishi bilan

bogʻliq operatsiyalarni amalga oshirishda eksport nazoratiga oid qonunlar va qoidalariga rioya qilishlari majbur.

Koʻzda tutilmagan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida, shuningdek, korporativ javobgarlik doirasida Kompaniya AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya qonunlarining ayrim mamlakatlar, shaxslar, shaxslar guruhlar va biznesning barcha hududlaridagi tashkilotlar bilan ish yuritishni cheklaydigan talablariga rioya qiladi va Kompaniya xodimlardan ushbu tartib taʼminlanishi talab etiladi.

Kompaniya xodimlari xizmat faoliyatiga taalluqli boʻlgan savdo qonunlari va qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi hamda ushbu qoidalar murakkab va tez-tez oʻzgarib turishini inobatga olib, qonunchilik toʻgʻrisida oʻz bilimini oshirib turishi maqsadga muvofiq.

Savdo cheklovlari oʻzgarishi mumkinligi sababli, Kompaniya masʼul xodimlari Kompaniya tomonidan yaqin orada tijorat faoliyati amalga oshirilmagan mamlakatda biznesni boshlashdan oldin Komplayens departamenti bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

14. Pullarni yuvish va terrorizmni moliyalashtirishda ishtirokni taqiqlash

Kompaniya jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga soʻzsiz rioya qiladi.

Kompaniya xodimlari faqat qonuniy faoliyat bilan shugʻullanadigan va faqat qonuniy manbalardan daromad oladigan ishonchli mijozlar va biznes hamkorlar bilan biznes qilish uchun barcha mumkin boʻlgan oldini olish choralaridan foydalanishi kerak.

Kompaniya xodimlari mansab vakolati doirasida Kompaniya tomonidan loyiha yoki shartnoma bilan bogʻliq boʻlmagan tomonlardan toʻlovlarni qabul qilishiga yoʻl qoʻyilmasligi kerak.

Kompaniya tomonidan oʻz siyosatiga zid nostandart toʻlov usullari olinishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

15. Halol raqobat

Kompaniya erkin, adolatli va halol raqobat tamoyillariga rioya qiladi.

Kompaniya xodimlari Kompaniya tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid yoki unga qarshi boʻlgan shartnomalar tuzishiga yoʻl qoʻymasligi kerak.

Kompaniya xodimlari raqobatchilar bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning narxi va narxlarning hosil boʻlish prinsiplarini muhokama qilmasligi kerak.

Raqobatchilar bilan suhbatlar jarayonida Kompaniyaning strategik qarorlari va jamoatchilik uchun ochiq boʻlmagan va raqiblarga oshkor boʻlmasligi lozim boʻlgan boshqa maʼlumotlarni muhokama qilish man etiladi.

16. Atrof-muhit

Kompaniya barcha qonuniy talablarni to'liq bajarish bilan bir qatorda, doimiy ravishda tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish orqali o'z faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga intiladi.

Kompaniya xodimlariga Kompaniyada atrof-muhitni himoya qilish qonunchiligi talablari buzilishlari holatlari ma'lum bo'lganda darhol rahbariyatga xabar berilishi kerak.

17. Kompaniya ma'lumotlari va aktivlari muhofazasi

Har bir xodimning vazifasi Kompaniyaning mulki va resurslaridan iloji boricha samarali foydalanishdir. Kompaniya xodimlari Kompaniyani mulkini va intellektual mulkini (jumladan, mualliflik huquqi, Patentlar va nou-xaular, tovar belgilari), shuningdek, unga tegishli bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni hamda xodimlarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishga mas'ul va majburdir.

Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishning boshqa turlari faqat qonuniy asoslarda yoki manfaatdor shaxsning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Kompaniya xodimlari:

- hech qanday maxfiy materiallarni o'qish yoki ko'rish ruxsatiga ega bo'lmagan shaxslar, ushbu harakatlarni bajarmasligiga amin bo'lishi;
- maxfiy masalalar jamoat joylarida baland ovozda muhokama qilmasligi;
- Kompaniyaning maxfiy ma'lumotlarini yaqin qarindoshlariga, yoki tanish va do'stlariga, shuningdek, ushbu ma'lumot bilan tanishish uchun ruxsati bo'lmagan shaxslarga oshkor qilmasligi;
- yetkazib beruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish;
- Kompaniya tomonidan yoki Kompaniya uchun to'plangan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish;
- agar xodimning shaxsiy ma'lumotlari xodim uchun ochiq bo'lsa, ushbu ma'lumotni yo'qotilish, noto'g'ri foydalanish, unga ruxsatsiz kirish, oshkor qilish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilish uchun ehtiyot choralarini ko'rishi kerak.

18. Kompaniya xodimlarining manfaatini himoya qilish

Kompaniya xodimlarini xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga xilof boshqa xatti-harakatlardan himoya qilish davlat organlari va tashkilotlarining rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga to'sqinlik qilish, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga og'dirishga qaratilgan murojaatlar, shuningdek, hamkasblari

tomonidan sodir etilgan yoki sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida xabar bergan xodimlarni vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va xavf-xatarlardan himoya qilish choralari ko‘riladi.

19. Odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish

Kompaniya xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti yoki Odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Kompaniyaga ishga qabul qilingan Kompaniya xodimlari xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalariga bilan tilxat asosida imzo qo‘ydirgan holda tanishtiriladi.

Mazkur Odob-axloq qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi Kompaniya rahbarining ko‘rsatmasiga muvofiq Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti tomonidan o‘tkaziladi.

20. Komplayens sertifikatini rasmiylashtirish

Komplayens nazoratiga oid siyosatlar to‘plami – Handbook (keyingi o‘rinlarda – Qo‘llanma)da nazarda tutilgan tamoyillar doimiy ravishda Kompaniyaning korporativ siyosatining asosiy qismini tashkil etishi lozim. Kompaniyaga ishga qabul qilingan har bir xodim Odob-axloq kodeksi va Qo‘llanmani olganidan so‘ng har yili Odob-axloq kodeksi va Qo‘llanmani olganligini, tanishib chiqqanligini, shuningdek o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etganligini va ular Odob-axloq kodeksi va Qo‘llanmaning qoidalariga rioya etayotganligini “A-1” shakldagi Komplayens sertifikatini bilan tasdiqlashi lozim. (“A-1” shakldagi Komplayens sertifikatini ilova qilinadi)

Mazkur sertifikat xodim bilan mehnat shartnomasi tuzish chog‘ida va har yili yil boshida xodimga taqdim etiladi. Xodim tomonidan “A-1” shakldagi Komplayens sertifikatini to‘ldiriladi va Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan qabul qilinib, xodimning shaxsiy yig‘ma jildiga tikib qo‘yiladi. Xodim Komplayens sertifikatida keltirilgan har bir band bo‘yicha kiritilgan ma‘lumotlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgardir.

21. Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik

Kompaniya xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik holati ularga nisbatan axloqiy va intizomiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun Odob-axloq komissiyasi tomonidan Kompaniya xodimlariga quyidagi axloqiy ta’sir choralari qo‘llaniladi:

- ogohlantirish;
- uzr so‘rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;
- Kompaniya kollegial yig‘ilishlarida tanbeh berish.

Odob-axloq komissiyasi Kompaniya xodimga nisbatan intizomiy ta’sir chorasini qo‘llash uchun Kompaniya rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi odob-axloq qoidalari Kompaniya rahbari tomonidan buzilgan taqdirda, ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan takliflarni yuqori turuvchi Kompaniya boshqaruv organiga yuboradi.

Kompaniya xodimi Odob-axloq qoidalarini buzishi ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

A-1 shakl: Komplayens sertifikat

Mazkur Qo'llanmada bayon etilgan tartib-tamoyillar Kompaniyaning korporativ madaniyatining asosiy qismini tashkil etadi. Har bir Kompaniya xodimi ishga qabul qilingan vaqtida va yilda bir bor Odob-axloq kodeksi va Qo'llanma olib, tanishgandan so'ng, Odob-axloq kodeksi va Qo'llanmani olganligi va tanishganligi, shuningdek o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etganliklarini va ular Odob-axloq kodeksi va Qo'llanmaning qoidalariga muvofiq faoliyat yuritishlari bo'yicha quyidagi shaklga imzo qo'yish orqali tasdiqlaydilar:

F.I.Sh.: _____

Tashkilot: _____

Boshqarma: _____

Lavozim: _____

Men ushbu bilan tasdiqlayman:

(1) Men Odob-axloq kodeksi va Qo'llanmani oldim va ular bilan tanishib chiqdim.

(1) Komplayens bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etdim.

(2) Men Odob-axloq kodeksi, Qo'llanma va boshqa barcha tegishli qonunlar va yo'riqnomalarning qoidalariga amal qilaman hamda faoliyatim sohasida ularga amal qilishni va ijrosini ta'minlashni qo'llab-quvvatlayman.

(3) Men Odob-axloq kodeksi va Qo'llanma, shuningdek Kompaniyadagi faoliyatim bilan bog'liq amaldagi qonun hujjatlari va qoidalariga qarshi bo'lgan har qanday tadbirlarda ishtirok etmayman / etmadim.

(4) Men Kompaniya rahbariyati, mas'ul shaxsi va xodimi tomonidan Odob-axloq kodeksi va Qo'llanma yoki amaldagi qonun hujjatlari va qoidalarining buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotga ega emasman.

(5) Men mansabdor shaxsga (Qo'llanmada ko'rsatilganidek) uning vakolatlaridan foydalangan holda Kompaniya faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, ko'maklashish yoki tegishli afzalliklar olish uchun bevosita yoki bilvosita pora yoki har qanday qimmatbaho buyumlar taklif etmaganman, va'da qilmaganman va harakat ham qilmaganman.

(6) Men bevosita yoki bilvosita hech bir shaxsga uning tadbirkorligi yoki ish faoliyati bilan bog'liq korporativ boshqaruv organi yoki boshqa shaxslar nomidan noqonuniy harakatlar amalga oshirishga undash maqsadida pora yoki hech qanday qimmatbaho buyumlar taklif etmaganman, va'da qilmaganman va harakat ham qilmaganman.

(7) Men Kompaniyadagi faoliyatim bilan bog‘liq biror bir vazifani o‘rnatilgan qoidalariga zid ravishda bajarishim uchun pora yoki hech qanday qimmatbaho buyumlarni olmaganman, talab qilmaganman yoki olishga urinmaganman.

(8) Men bevosita yoki bilvosita noqonuniy pullarni legallashtirish, terrorizm yoki terrorizm bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirish ishlarida ishtirok etmaganman.

(9) Men iqtisodiy sanksiyalar va embargolar (taqiq) ro‘yxatiga kiritilgan tomonlar bilan hech qanday bitimlarga kirishmaganman.

(10) Men Kompaniya xodimi sifatida sanksiyalar qo‘llanilgan mamlakatlar va hududlardan/ga, xususan Kuba, Eron, Suriya, Shimoliy Koreya, Rossiya va Ukrainaning Donesk, Lugansk hamda Qrimga/dan tovarlar jo‘natish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar bilan hech qanday bitimlarga kirishmaganman.

(11) Men Kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan avtotransport vositalarini tarqatish va sotish bilan shug‘ullanuvchi diler kompaniyalar va distribyutorlar bilan, yoki Kompaniyaning boshqa kontragentlari va affillangan shaxslari bilan bevosita yoki bilvosita aloqador emasman, quyidagilar bundan istisno:

(12) Mening hech qaysi bir oila a‘zolarim (ya’ni, ota-onam, turmush o‘rtog‘im, boshqa muhim shaxslar, farzandim yoki aka-ukalarim) Kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan avtotransport vositalarini tarqatish va sotish bilan shug‘ullanuvchi diler kompaniyalar va distribyutorlar yoki Kompaniyaning boshqa kontragentlari va affillangan shaxslari bilan bevosita yoki bilvosita aloqador emas, quyidagilar bundan istisno:

(13) Men Kompaniya va uning nomidan ish olib boradigan har qanday tuzilmaga vujudga kelishi mumkin bo‘lgan komplayens nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda firibgarlik, korrupsiya, noqonuniy mablag‘larni legallashtirish, iqtisodiy sanksiyalar va manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq qoidabuzarliklarni tekshirish maqsadida Kompaniya tomonidan taqdim etilgan kompyuter, noutbuk, telefon qurilmalarini tekshirishga rozilik bildiraman.

_____ (joy)

_____ (sana)

_____ (imzo)